
OVORAGARCHILIKKA CHEK QO'YILDI

Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish hujjatlarini qayd etishda jarayonlar o'zgardi. Ilgari dalolatnoma yozuvi boshqa hududdagi FHDYO bo'limi tomonidan qayd etilgan bo'lsa ushbu hududga borib kelish yoki yashab turgan joydagi FHDYO bo'limiga murojaat qilishi uchun murojaatni pochta orqali yuborish, natijasini olish uchun ma'lum bir mablag' va vaqt talab etilar edi. Endilikda yuqoridagi talab bekor qilinib bir shaxsga belgilangan tartibda tasdiqlangan ishonchnoma va dalolatnoma yozuvining qaysi ustuniga o'zgartirish kiritilishi haqidagi tasdiqlangan ariza asosida amalga oshirilishi mumkin bo'ldi.

1 noyabrdan boshlab nikoh qayd etilganligi, nikohda turmasligi yoki nikohdan ajralganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni olish bo'yicha Davlat xizmatlari markazida tezlashtirilgan tartibda ma'lumot olish hamda ma'lumotlarni arizachiga pochta orqali so'ralgan joyga yetkazib berish xizmati yo'lga qo'yildi. Bugungi kungacha markazimizda mazkur xizmat turi bo'yicha 15 nafardan ortiq murojaatlar o'z ijrosini topdi.

M. Sattorov,

tuman Davlat xizmatlari markazi bosh mutaxassisi.

2019-12-07 11:01:24